

PRESS-RELIZ

Uzcosmos yosh muhandislarning kreativ loyihalarini qo'llab-quvvatlamoda

O'zbekiston yoshlarining texnologiyalar, muhandislik, robototexnika, innovatsiya va astronomiya bo'lgan qiziqishini yanada orttirish, ularning bu boradagi g'oya, tashabbus va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi va Skillbox kompaniyasi bilan hamkorlikda **"Yosh muhandis"** respublika tanlovi tashkil etildi.

Joriy yilning **28-fevral sanasidan** start berilgan mazkur musobaqada **14 yoshdan 20 yoshgacha** bo'lgan maktab o'quvchilari va talabalardan iborat jami **133 ta jamoa** maishiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beruvchi **150ga yaqin** muhandislik ishlanmalari bilan qatnashishdi. Ulardan eng munosib deya saralab olingan **50 ta loyiha** yakuniy bosqichiga yetib keldi.

Joriy yilning **2-may kuni** O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi binosida **"Yosh muhandis"** tanlovining final bosqichi bo'lib o'tdi. Unda respublika bo'ylab saralangan **100 nafar** ishtirokchi g'oliblik uchun kurashdi.

Tanlov davomida soha ekspertlaridan iborat hakamlar hay'ati a'zolari yoshlarning muhandislik ishlanmalarini quyidagi mezonlar asosida baholashdi.

- Kreativ, innovatsion yondashuv;
- Loyihani amaliyotga tadbiq etish;
- Loyihaning ilmiy asosliligi;
- Loyihaning ijtimoiy va ekologik ahamiyati;
- Loyihaning taqdimot sifati.

"Yosh muhandis" tanlovining final bosqichi natijalari bo'yicha quyidagi jamoalar g'oliblar qatoridan joy olishdi:

1-o'rin – Robototexnika Reactive.uz (Qashqadaryo)

1-o'rin – SunD3nova (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

2-o'rin – Robbit Kids (Qashqadaryo)

3-o'rin – TUIT Robotics (Toshkent)

Eng innovatsion loyiha – Abrorbek Bahodirov

Eng istiqbolli yosh muhandislar – Sehriyo team jamoasi (Turkiyaga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi).

Asosiy sovrin tanlovning gran-pri sohiblari, “Eng kreativ loyiha” nominatsiyasi g‘olibi Turkiyaning Izmir shahridagi yozgi kosmik lagerga sayohat uchun yo‘llanmani yutib olishdi.

Mazkur tanlov natijalari shuni ko‘rsatadiki, Uzcosmos agentligi tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar nafaqat yoshlarning texnik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning real muammolarga innovatsion yechimlar topish salohiyatini ham oshirishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, “Yosh muhandis” tanlovi orqali shakllanayotgan loyihalar faqat nazariy g‘oya darajasida qolmay, balki amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lgan ishlanmalar ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa kelajakda mamlakatning texnologik mustaqilligi, innovatsion iqtisodiyot va kosmik sanoat salohiyatini mustahkamlashda katta zamin yaratadi.